

**Jalolov Komiljon Baxromovich**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti,

**To‘ychiev Xikmatullo Yuldashalievich**

Andijon viloyati “Andijonyo‘lko‘kalam” UK direktori, b.f.n.

## **PHENOLOGICAL ANALYSIS OF CERTAIN ORNAMENTAL PLANTS**

**Annotation:** article Chitalpa Tashkent t from ornamental trees.S. Elias & Wisura, Melia azedarach L., and Rhus coriaria L., from the bushes Caesalpinia gillesii Wall., described the morphobiological properties of their plants and the results of phenological observations. In the climatic conditions of the Andijan region, the growth and development of these ornamental plants has been studied and it has been observed in the experiment that its use in landscaping is promising.

**Keywords:** Chitalpa Tashkent T.S. Elias & Wisura, Melia azedarach L., and Rhus coriaria L, Caesalpinia gillesii Wall. phenology, morphobiology, Greening, introduction.

Avtomobil yo‘llari bo‘ylab yo‘l chetlarini ko‘kalamzorlashtirishda daraxt va buta ko‘chatlari asosan manzarali o‘simliklar assortimentidan iboratdir. Ko‘kalamzorlashtirishda ekilayotgan daraxt va butalarning turlari va navlari yildan yilga ortib bormoqda. Ularning doimiy gullab, estetik manzara hosil qilish hususiyati insonlarni o‘ziga jalb qiladi.

Ana shunday o‘simliklardan Chitalpa tashkentensis T.S. Elias & Wisura, Melia azedarach L., Rhus coriaria L, va Caesalpinia gillesii Wall.tajriba obyekti hisoblanadi.

Dala tajribalari Andijon viloyati “Andijonyo’lko’kalam” UK ga qarashli manzarali o’simliklar yetishtirish pitomnigida olib borildi. 2020-2022 yillarda davomida tadqiqot obyektlarining fenologik fazalarini kuzatishda kurtaklarni bo‘rtishi, gullash boshlanishi, qiyg‘os gullashi va tugashi, mevalarning pisha boshlashi, qiyg‘os pishishi va to‘liq pishishi, barglarning rangini o‘zgarishi, barglarni to‘kilishi va vegetatsiyasining tugashi sanalari qayd etib borildi.

Tajribalar I.N.Beydeman “Metodika izucheniya fenologii rasteniy” o’simliklarni fenologiyasini o‘rganish usulida olib borildi.

Tadqiqot obyektlaridan *Ceasalpinia gillessi* Wall ning hayotiy shakli buta, qolgan 3 turdagi o’simliklar hayotiy shakli daraxt hisoblanadi.

O’simliklarda vegetatsiyaning boshlanishi mart oyining III-dekadasi va aprel oyining I-dekadasida kuzatildi.

Gullash fazasi *Ceasalpinia gillessi* Wall.da 4 maydan ochila boshladi. 14 may sanasida gullarning 60-70 % qismi ochildi. 22 may sanasiga kelib gular to‘liq ochildi. Dastlabki to‘pgul gullarining ochilish muddati o‘rtacha 24 kunni tashkil etdi. To‘pgullar simpodial shoxlarda joylashib, gullash mavsumi sentabrning III-dekadasigacha davom etadi. *Melia azedarach* L. daraxtida yillik novdalarning 3-4 bo‘g‘imlaridan boshlab barg qo‘tig‘idan to‘pgullar shakllana boshladi. Dastlabki gullar 19 apreldan ochila boshladi. Gullarning ochilish muddati o‘rtacha 14 kunni tashkil etdi. *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura daraxti novdasining uchki qismida to‘pgullar joylashib, dastlabki gullar 11 maydan ochila boshladi. To‘pgullarning ochilish muddati o‘rtacha 20 kunni tashkil etdi. Lekin gullash fazasi sentabr oyining I-dekadsigacha davom etadi. *Rhus coriaria* L. da dastlabki gullar 5 maydan ochila boshladi. 15 may sanasiga kelib gular to‘liq ochildi. Gullarning ochilish muddati o‘rtacha 11 kunni tashkil etganligini kuzatdik.

Meva pishish fazasi sentabr oyining III-dekadasida *Ceasalpinia gillessi* Wall, *Melia azedarach* L. va *Rhus coriaria* L. da kuzatildi. *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisura daraxtida gular steril bo'lganligi uchun meva hosil qilmadi.

Xazonrezgilik jarayoni *Rhus coriaria* L. daraxtida erta boshlanib, oktyabr oyining ohirida to'liq tugadi. *Melia azedarach* L. daraxtida noyabrning I-dekadasida, *Ceasalpinia gillessi* Wall hamda *Chitalpa tashkentensis* T.S. Elias & Wisurada bu jarayon noyabr oyining ohirigacha borganligi anqlandi.

Yil davomida o'simliklarning vegetatsiya davri *Ceasalpinia gillessi* Wall butasida 240 kun, *Melia azedarach* L. daraxtida 227 kun, *Chitalpa tashkentensis* T.S.

Elias & Wisurada 230 kun, Rhus coriaria L. da 220 kunni tashkil etdi (1-jadval).

Ayrim xushmanzara daraxt va butalar o'suv davrida fenologik fazalarining rivojlanishi.

1-jadval.

| Ob'ektar                  | Vegetatsiyaning boshlanishi | Kurtaklar yozilishi | Gullash     |         | Gullash davomiyligi (kun) | Mevalar pishishi |         | Barglarning rang o'zgarishi | Barg to'kilishi |         | Vegetatsiya davomiyligi |
|---------------------------|-----------------------------|---------------------|-------------|---------|---------------------------|------------------|---------|-----------------------------|-----------------|---------|-------------------------|
|                           |                             |                     | Boshlanishi | Tugashi |                           | Boshlanishi      | Tugashi |                             | Boshlanishi     | Tugashi |                         |
| 1                         | 2                           | 3                   | 4           | 5       | 6                         | 7                | 8       | 9                           | 10              | 11      | 12                      |
| Ceasalpina gillessi Wall. | 4, IV                       | 8, IV               | 4, V        | 22, V   | 24                        | 5, VII           | 20, X   | 6, X                        | 1, XI           | 30, XI  | 240                     |
| Melia azedarach L.        | 28, III                     | 1, IV               | 19, IV      | 2, V    | 14                        | 10, X            | 30, X   | 20, IX                      | 20, X           | 20, XI  | 237                     |
| Chitalpa tashkentensis... | 7, IV                       | 10, IV              | 11, V       | 23, V   | 20                        | -                | -       | 5, XI                       | 17, XI          | 25, XI  | 230                     |
| Rhus coriaria L.          | 25, III                     | 29, III             | 5, V        | 15, V   | 11                        | 10, IX           | 20, X   | 6, X                        | 15, X           | 30, X   | 220                     |

**Xulosalar va takliflar.** Fenologik kuzatuvlardan ma'lum bo'ldiki, Ceasalpina gillessi Wall va Chitalpa tashkentensis T.S.

Elias & Wisura vegetatsiyasining 5 oyi davomida doimiy gullash hususiyati uning manzaraviylik qiymatini yanda oshiradi. Meva va urug'larni terish muddatlari Ceasalpina gillessi Wall butasida iyun oyidan boshlab kech kuzgacha, Melia azedarach L. daraxtida oktyabr-noyabr oylari davomida, Rhus coriaria L. daraxtida esa sentyabr-oktyabr oylariga to'g'ri keladi.

Melia azedarach L. va Rhus coriaria L. daraxtlari xazonrezgillik fazasida barglarining yorqin sarig va qizil rangda tovlanishini inobatga olib, bu daraxtlardan avtomobil yo'llarini ko'kalanzorlashtirishda o'ziga hos kompozitsiya yaratish mumkin bo'ladi.



**Xushmanzara daraxt va butalarlarning o'ziga hos jozibasi.****Rhus coriaria L****Melia azedarach L.,****Caesalpinia gillesii Wall****Chitalpa tashkentensis T.S. Elias &  
Wisura****Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Б.Х.Бойсунов, Л.Х.Ёзиев. Жанубий ўзбекистон шароитида мелияларнинг уруғ ҳосилдорлиги. Ўзбекистон биология журнали. 2004 йил. 2 – сон. 62-67 бетлар
2. Бейдеман И.Н. Изучение фенологии растений// Полевая геоботаника.М.; Л.;1960, Т.2.С. 333-336.
3. Русанов Ф.Н. Еще об основных понятиях интродукции растений// Бюл. Глав. ботан. Сада. Фыш.67. 1967, С 3-8.
4. Федорова А.А., Артюшенко З.Т. Атлас по описательной морфологии высших растений. Л: Наука, 1979. 296 с.
5. Холова Ш.А. Кўкаламзорлаштириш ва фитодизайнда қўлланиладиган истиқболли ўсимликларнинг биоэкологик хусусиятлари. Диссертация. Тошкент-2019. 119 бет.